

2023-yil dekabr “Yorqin payshanbasi”

2023 27 Dekabr

Shu hafta, 28-dekabr kuni Uzbekistan Airways Toshkentdan Anqara, Boku, Milan, Omsk, Pekin va ortga, shuningdek, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Urganch va Farg'onadan Istanbulga va ortga qaytuvchi yo'nalishlar tariflari narxiga 20% chegirma e'lon qiladi.

O'tkazib yubormang! Chegirma faqat bir kun – soat 00:00 dan 23:59 gacha amal qiladi. Aksiya chegirmasi e'lon qilingan parvozlarda jadvali tugagunga qadar ushbu aksiyada ko'rsatilgan barcha aviaqatnovlarga taalluqli.

Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Aksiya muddati 2023-yil 28-dekabr soat 00:00 dan 23:59 gacha;
2. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:
 - kattalar uchun tarifdan – 20%;
 - 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 20%;
 - chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun amal qilmaydi;
3. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'implarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
4. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 28.12.2023da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo'llanilmaydi;
5. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya'ni chegirma qo'llanilgan holda) amalga oshiriladi;
6. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo'llanilgan tarif qoidalarini bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);

7. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;
8. Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan Anqara, Boku, Milan, Omsk, Pekin va ortga, shuningdek, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Urganch va Farg'onadan Istanbulga va ortga qaytuvchi to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e'lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.

Chegirmali aviachiptalarni rasmiy saytda, aviakompaniya agentlari va Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko'chasi, 9-uy manzilida joylashgan Uzbekistan Airways Sales filialida xarid qilishingiz mumkin.